

SURXON VOHASIDAGI QADIMIY OBIDALARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI VA SAQLANISH MASALALARI

Tojiyeva Nafisa O'roq qizi

Termiz davlat universiteti, Magistratura bo'limi, Etnografiya, etnologiya va antropologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Surxon vohasida qadim qadimdan o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan yodgorliklar obidalarni saqlash va asrab qolish haqida mulohaza qiladi. Shu o'rinda davlatimiz tomonidan qanchalik darajada e'tibor qaratilyotgani, ishlab chiqilgan loyiha va qonunlar orqali o'z isbotini topmoqda.

Kalit so'zlar: Madaniy meros, Amir Temur, Termiz 2500 yillik, Boysun, So'fi Olloyor, Boysun bahori.

KIRISH

O'zbekiston hududida joylashgan ko'plab me'moriy yodgorliklar, maqbaralar, masjidlar, minoralar va arxeologik manzillar ming yillik tarixga ega bo'lib, ular jahon sivilizatsiyasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qadimiy obidalarni saqlash, asrash va restavratsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Maqolada Surxon vohasi ziyoratgohlariga oid adabiyotlar hamda internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillaridan keng qo'llanildi.

Muhokama va natijalar

Qadimiy obidalar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan bebaho boylik hisoblanadi. O'zbekiston hududida joylashgan ko'plab me'moriy yodgorliklar, maqbaralar, masjidlar, minoralar va arxeologik manzillar ming yillik tarixga ega bo'lib, ular jahon sivilizatsiyasi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli qadimiy obidalarni saqlash, asrash va restavratsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Qadimiy obidalarni saqlash jarayonida bir qator muammolarni uchratish mumkin. Eng avvalo, tabiiy omillar yodgorliklarga katta zarar yetkazadi. Kuchli shamol, yomg'ir, yerosti suvlari, zilzilalar hamda iqlim o'zgarishlari oqibatida tarixiy binolarning devorlari yemiriladi, naqsh va bezaklari buziladi. Ayniqsa, pishiq g'isht va loydan qurilgan qadimiy obidalar vaqt o'tishi bilan o'z mustahkamligini yo'qotadi. Restavratsiya ishlari katta xarajat talab qiladi. Tarixiy obidalarni asl holatini saqlagan holda tiklash uchun maxsus materiallar, zamonaviy

texnologiyalar va malakali mutaxassislar kerak bo'ldi. Ba'zi hollarda mablag' yetishmasligi sababli ta'mirlash jarayonlari kechikadi yoki sifatsiz amalga oshiriladi. Mutaxassislar yetishmovchiligi ham muhim masalalardan biridir. Restavator, arxeolog, me'mor va tarixchilar obidalarni ilmiy asosda tiklashda muhim rol o'ynaydi. Ammo barcha hududlarda ham tajribali mutaxassislar yetarlicha emas. Natijada ayrim obidalar noto'g'ri ta'mirlanib, o'zining tarixiy qiyofasini yo'qotishi pragnoz qilinadi. Shuningdek, inson omili bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Ba'zi hollarda obidalar atrofining noqonuniy qurilishlar bilan band qilinishi, turistlar tomonidan ehtiyotsiz munosabatda bo'linishi yoki tarixiy buyumlarning talon-toroj qilinishi yodgorliklarga zarar keltiradi. Bu esa madaniy merosni asrash tizimini yanada kuchaytirishni talab qiladi. Mustaqillik yillarida xalqimizning me'moriy obidalari qatoriga yangidan barpo yetilgan Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Ahmad al-Farg'oniy, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi haykallari qo'shildi. 2002-yilda Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan tarixiy ashyolar, me'morchilik va haykaltaroshlik san'ati namunalari, devoriy rasmlar, uy-ro'zg'or buyumlari, turli taqinchoqlar bilan jihozlangan muhtasham arxeologiya muzeyi barpo etildi. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey qo'riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san'at asarlari oldida hayratga tushmoqdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, Koreya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda. YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining representativ ro'yxatiga yesa, mamlakatimiz nomoddiy madaniy merosining 8 ta obyekti (Boysun madaniy makoni, Shashmaqom mumtoz musiqasi, Katta ashula, Askiya san'ati, Navro'z, Palov madaniyati va an'analari, Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi: adras va atlas tikish, Xorazm raqsi – Lazgi) kiritilgan. Mamlakatimizning YuNESKOga a'zo bo'lgan 1993-yildan boshlab sohaga oid barcha asosiy xalqaro hujjatlariga qo'shilish choralarini ko'rdi, ularning normalari milliy qonunchilikka implementatsiya qilinmoqda. Keyingi paytlarda O'zbekiston hududidagi noyob madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, tarixiy shaharlarning bosh loyihasi va menejment rejasini YuNESKO xalqaro standartlari hamda talablariga muvofiq ishlab chiqishda mazkur tuzilmaning xalqaro ekspertlari ham keng jalb yetilmoqda.²⁵ YuNESKO bilan yaqin hamkorlikda moddiy va nomoddiy meros obyektlarini asrashga doir turli xalqaro anjumanlar tashkil qilinmoqda. Mazkur tadbirlar madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish yo'lidagi dolzarb muammolarni ko'rib chiqish, xalqaro tajribani o'rganish, tarixiy-madaniy meros saqlanishini ta'minlashga doir milliy tizimni takomillashtirish, bu yo'nalishdagi davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari

²⁵ Salimov O.M Arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullari. 2013 yil

faoliyatining asosiy yo'nalishlarini aniqlash imkonini bermoqda. Aytish mumkinki, Prezidentimizning 2018-yil 19-dekabrda "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bu borada yangi bosqichni boshlab berdi. Qarorning 10-bandiga asosan YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar hisoblanishi belgilandi. Ularda rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalari Madaniy meros departamenti hamda YuNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan majburiy tartibda kelishilgan holda amalga oshirishiga oid tartib o'rnatildi. YuNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga tarixiy-madaniy qiymatiga ko'ra kiritilgan respublikadagi hududlar alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar sifatida belgilab qo'yilishi ushbu hududlarning huquqiy maqomiga aniqlik kiritildi va ularni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi. Ta'kidlash joizki, rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarining loyihalarini YuNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish yo'lga qo'yildi. Masalan, 2020-yilda YuNESKOning Umumjahon merosi markazi bilan kelishib olish uchun 11 ta loyiha Umumjahon merosi markaziga yuborilgan. 2020-yil sentyabr oyida Buxoro tarixiy markazida rejalashtirilgan obyektning loyihasi yuzasidan Umumjahon merosi markazining ijobiy xulosasi olindi. Koreya Respublikasi Madaniy meros fondi bevosita Turizm va sport vazirligi, Koreya hukumati hamda Koreya Madaniy meros boshqarmasi bilan birgalikda 2020-yildan boshlab O'zbekiston madaniy merosini asrash bo'yicha ODA (Official Development Assistance) loyihasini amalga oshirdi. . 2023 yilda YUNESKO ro'yxatiga yana bir qancha obidalar kiritilishi uchun nomzodlar tayyorlandi. Samarqandda "Yangi O'zbekiston" zamonaviy turizm markazlari qad rostladi, lekin ular tarixiy meros bilan uyg'unlikda yaratilmoqda. "Yoshlar turizmi", "Maktab turizmi" loyihalari orqali yosh avlodga madaniy meros qadriyatlarini singdirilmoqda. Birgina turizm yo'nalishini oladigan bo'lsak 2001 yilda YUNESKO Boysunni "Insoniyatning ogzaki va nomoddiy qadriyatlar makoni" sifatida etirof etdi. Vaholanki ushbu yuksak etirofga dunyodagi 19 ta hudud sazavor bolgan xolos. 2002 yildan boshlab esa Boysunda "Boysun bahori" ochiq folklor festivallari otkazila boshlandi va dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar ushbu festivalda ishtirok etish uchun kela boshladi. 2009 yil 25 avgustda Surxon vohasiga tashrif buyurgan Respublikamiz birinchi Prezidenti I. A. Karimov Surxon vohasining nihoyatda qadimiy tarixga ega ekanligini, insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida voha alohida orin tutganligini ta'kidladi. Xuroson me'morlik an'analarida qurilgan mashhur Jarqo'rg'on minorasi (1108–09 yillar), Sulton Saodat majmuasi (X asr, XV-XVII asrlar), Denovdagi Chag'oniyon davlati qal'asi qoldiqlari (15-asr), Hakim atTermiziy majmuoti (11 – 15-asrlar), Eski

Termizdagi Zurmala minorasi (II asr), Termiz atrofida Kokildor xonaqohi (16-asr) va boshqa tarixiy obidalar vohaning jozibadorligini oshirmoqda. So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida qadimiy vohaning sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilayotgan yuksak e'tibor hududda ichki va tashqi turizmni rivojlantirib, investitsion jozibadorlikni oshirmoqda. Vohada 38 turoperator, 53 mehmonxona va yuzta oilaviy mehmon uylari sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda.²⁶ Viloyatda paleolit davridan XX asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan 444 ta arxeologiya, 36 ta me'morchilik va muqaddas qadamjo, 39 ta haykaltaroshlik yodgorliklari, 42 ta diqqatga 46 sazovor joy mavjud. Hozirgacha ularning 101 tasi turistik namoyish maskanlari sifatida tanlab olinib, ro'yxati shakllantirilgan va turistik aylanmaga kiritilib, infoturlar tashkil etilayotir. Muqaddas ziyoratgohlar hududda ziyorat turizmini joriy etib, nafaqat mahalliy balki, xorijlik sayyohlar oqimini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida vohaning turizm salohiyatidan samarali foydalanib, yangi ish o'rinlari yaratish, turizm orqali investitsion jozibadorlikni va aholi daromadlarini oshirishga alohida e'tibor qaratgan edi. 2018–2019- yillarda Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi qabul qilindi. Unda hududning yangilangan, zamonaviy qiyofasini yaratish, transport infratuzilmasini takomillashtirish, xorijdan tashrif buyurayotgan sayyohlarga sifatli xizmatlar ko'rsatish kabi muhim masalalarga alohida ahamiyat berilgani ziyorat turizmi imkoniyatlaridan unumli foydalanishga qulay muhit yaratdi. O'tmishda Surxondaryo muqaddas islom dinini targ'ib qilgan va uni rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan Hakim Termiziy, Iso Termiziy kabi ko'plab buyuk olimlarga beshik bo'lgan.²⁷ Boy tarixga ega bu yurtda So'fi Olloyor, Alouddin Attor, Muhammad Zohid singari ulug' zotlar mangu qo'nim topgan. Mazkur dastur asosida Boysun, Termiz, Jarqo'rg'on, Oltinsoy, Denov, Uzun, Sherobod tumanlaridagi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar rekonstruksiya qilinib, obodonlashtirildi. Yo'llar ta'mirlandi. Savdo-hunarmandchilik do'konlari qurildi. Xorijlik sayyohlarning emin-erkin ziyorat qilishi uchun barcha zamonaviy sharoitlar yaratildi. Surxondaryo viloyatining Denov tumanida Naqshbandiya ta'limotining asoschisi Hazrat Bahouddin Naqshbandning birinchi xalifasi Alouddin Attor mangu qo'nim topgan muqaddas ziyoratgoh mavjud. Oltinsoy tumanida "Silsilai oliya" tarkibiga kiruvchi ulug' zotlardan yana biri – Muhammad Zohid maqbarasi, turkiy tasavvuf ta'limotining yirik namoyandasi So'fi Olloyor qadamjosi va ul zot tomonidan barpo etilgan masjid saqlanib qolgan. Yangi yo'nalishlarda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" da aziz-

²⁶ Mustafauqov Sh. I " Investitsion muhit jozibadorligi " Ilmiy-amaliy qo'llanma. Toshkent 2017.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil Oliy Majlisga murojatnomasi.

avliyolar muqaddas hoki qo'yilgan bu maskanlarni obodonlashtirib, ziyoratchi sayyohlar uchun zamonaviy qulayliklar yaratib berildi.

Xulosa va takliflar

Yodgorliklarni o'rganishda, avvalo, fanlararo yondashuvni kuchaytirish zarur. Arxeologik ma'lumotlar etnologik, tarixiy, antropologik va san'atshunoslik tadqiqotlari bilan uyg'un holda tahlil qilinsa, yodgorlikning jamiyat hayotidagi o'rni to'liqroq ochiladi. Ayniqsa, Surxon vohasi kabi qadimdan turli madaniyatlar chorrahasida joylashgan hududlarda bunday yondashuv yodgorliklarning ko'p qatlamli madaniy mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Yodgorliklarni o'rganishda hududiy va lokal omillarga alohida e'tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salimov O.M Arxitektura yodgorliklaridan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullari. 2013 yil
2. <https://yuz.uz/uz/news/madaniy-meros-obektlarini-restavratsiya-qilish-boyicha>
3. Alimardonova Z.M. Modern concept of tourism development in Surkhandarya region // Central Asian Journal of innovations on tourism management and finance.
4. Vbl:02, Issue:02, Feb 2021. - Pp. 89-99.
5. Juraeva S. "Surxondaryo viloyati ziyoratgohlari tarixi" : Monografiya / S. Juraeva. - Toshkent: "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2021. - 32 b.